

MAQOLLARDA O‘Z VA KO‘CHMA MA‘NO HODISALARI

Maratova Zuhra

RANCH universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan o‘z ma‘no va ko‘chma ma‘no hodisalari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarda leksemalarning bevosita, nominativ ma‘noda qo‘llanishi bilan bir qatorda ularning badiiy obrazlilik asosida hosil bo‘lgan ko‘chma, metoforik hamda metonomik ma‘nolarini shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Maqollarda ko‘chma ma‘noning voqealanishi jarayonida milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va konseptual tafakkurning tutgan o‘rni ochib beriladi. Tahlil davomida kontekstning ma‘no hosil qilishdagi roli, ma‘no ko‘chish turlari hamda ular orqali hosil bo‘ladigan umumlashtirish, baholash va didaktik mazmunning ifodalanish xususiyatlari aniqlanadi. Olingan natijalar maqollar semantikasining ko‘p qatlamliligini, ularning badiiy-estetik ta‘sirchanligi va pragmatik salohiyatini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga xizmat qiladi hamda xalq og‘zaki ijodining tilshunoslik jihatdan chuqurroq o‘rganilishiga ilmiy zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, leksema, maqol, xalq og‘zaki ijodi, morfologiya, tilshunoslik, metofora.

Аннотция: В этой статье с лингвистической точки зрения анализируются явления «прямого значения» и «переносного значения», встречающиеся в узбекских народных пословицах. В исследовании освещаются механизмы формирования прямого, номинативного значения лексем в пословицах, а также их переносных, метафорических и метонимических значений, основанных на художественной наглядности. Раскрывается роль национального мировоззрения, системы ценностей и концептуального мышления в процессе возникновения переносного значения в пословицах. В ходе анализа определяется роль контекста в создании значения, виды семантического переноса, а также особенности выражения обобщающего, оценочного и дидактического содержания. Полученные результаты способствуют выявлению многослойности семантики пословиц, определяют основные факторы их художественно-эстетического воздействия и прагматического потенциала, а также создают научную основу для более глубокого лингвистического изучения народного устного творчества.

Ключевые слова: собственное значение, переносное значение, лексема, пословица, народное устное творчество, морфология, языкознание, метафора.

Abstract: This article analyzes the phenomena of literal and figurative meanings found in Uzbek folk proverbs from a linguistic perspective. The study highlights the mechanisms by which lexemes in proverbs convey not only their direct, nominative meanings but also figurative, metaphorical, and metonymic meanings formed based on artistic imagery. The process of figurative meaning manifestation in proverbs reveals the role of national worldview, the system of values, and conceptual thinking. During the analysis, the role of context in meaning formation, the types of meaning transfer, and the characteristics of expressing generalization, evaluation, and didactic content through them are determined. The results serve to identify the key factors that define the multilayered semantics of proverbs, their artistic-aesthetic impact, and pragmatic potential, while also providing a scientific basis for a deeper linguistic study of the oral creativity of the people.

Keywords: literal meaning, figurative meaning, lexeme, proverb, folk oral creativity, morphology, linguistics, metaphor. **Keywords:** literal meaning, figurative meaning, lexeme, proverb, folk oral creativity, morphology, linguistics, metaphor.

O‘z ma’no (to‘g‘ri ma’no) – so‘zning lug‘atda berilgan asosiy, bevosita, lug‘aviy ma’nosi bo‘lib, u bevosita narsaga, hodisaga ishora qiladi, ko‘chma ma’no esa o‘sha so‘zning boshqa narsaga o‘xshashlik (metafora) yoki aloqadorlik (metanimiya, sinekdoxa) asosida hosil bo‘lgan ikkilamchi, majoziy ma’nosidir; so‘zning badiiy tasvir va ifodaviyligini oshirish uchun qo‘llaniladi. Masalan, “yurak” – organ (o‘z ma’no), “o‘z yuragidan gapirdi” – majoz (ko‘chma ma’no).

Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlarga aytiladi. Maqol atamasi arabcha – qavlun – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan.

Maqollarda so‘z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi.[1.:64]

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. “Yomon xotin olguncha, bo‘ydoq yurgan yaxshiroq”, “Qizi borning nozi bor”, “Quda bo‘lguncha, ko‘p sinash, quda bo‘lgach, ko‘p siylash” kabi maqollar o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Ayrim maqollar faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas”, “Egrining omochi yerga botmas”, “O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar” kabi maqollar bilan tanishganimizda, ko‘chma ma’no yashiringanini his qilamiz.[1.:70]

Bir qarashda “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas” maqoli o‘z ma’nosida ham qo‘llanadigandek tuyiladi. Ammo bu hikmatli so‘zni hech kim o‘z ma’nosida deyarli qo‘llamaydi. Aslida, hayotda uchrab turadigan turli mish-mishlarning rost ekanligini ta’kidlash maqsadida bu maqolni esga olish odat tusiga kirgan.

“Tuhmatchining omochi yerga botmas” maqolida bir oz g‘alati fikr ilgari surilgandek tuyiladi. Omochning yerga botmasligi bilan tuhmatchining qanday aloqasi bo‘lishi mumkin, degan mulohaza paydo bo‘ladi. Ammo aynan shu o‘rinda “omoch” deganda, bevosita yer haydashda foydalaniladigan asbob emas, balki tuhmatning natijasi nazarda tutiladi. “Yer” so‘zi iymonli, rostgo‘y odamga nisbatan qo‘llangan. Ya’ni tuhmatchining tuhmati rostgo‘y va pokiza odamga hech qanday salbiy ta’sir ko‘rsata olmasligi ta’kidlanmoqda. Binobarin, maqol matni bilan tanishganda, yoki uni eshitganda, qanday maqsadni nazarda tutib qo‘llanganiga e’tibor berishimiz lozim. Aks holda aytilgan maqolning asl ma’nosini tushunmay qolishimiz mumkin.[1.:70]

«Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqolini Xorazm viloyatida o‘z ma’nosida qo‘llab bo‘lmaydi. Sababi, Xorazmda «yer osti suvlari yer sathiga yaqin bo‘lgani uchun, kuzda haydalsa, yer qatqaloq bo‘ladi va hosildorlik pasayadi.

“Otning yag‘iri toyga qolar”. Bu maqolda “ot” so‘zidan qarindosh-urug‘chilikdagi katta avlod vakilining ramzi sifatida foydalanilgan. Odatda mahallada biror odamga baho berish lozim bolsa, birinchi navbatda, u shaxsning ota-onasi esga olinadi. Katta avlod tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchilik shu zahoti farzandga ko‘chiriladi. Natijada, inson hayoti davomidagi har bir xatti-harakat mahalladoshlar, qarindoshlar tomonidan nazoratda ekani anglashiladi. Maqol mazmunan har bir inson yoshidan qat‘i nazar kelajakda ota-ona bo‘lishni orzu qilsa, keyingi avlodiga “yag‘iri”ni qoldirmasligi kerak, degan ma’no anglashiladi va katta, yosh avlod tarbiyasining muayyan to‘g‘ri tizimda bo‘lishi uchun asos tayyorlanadi. Maqolda istiora san’ati etakchilik qiladi. Bu maqol ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanila oladi.[2.:208]

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollarida “o‘z ma’no” va “ko‘chma ma’no” hodisalarining o‘zaro munosabati tilning semantik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, maqollarda leksemalarning bevosita, nominativ ma’noda qo‘llanishi bilan bir qatorda ularning metafora, metonimiya va boshqa semantik usullar asosida kengaygan, ko‘chma ma’nolarda ishlatilishi mazmunning chuqurlashuvi, ma’no qatlamlarining ko‘payishi va badiiy ta’sirchanlikning ortishiga xizmat qiladi.

Ko‘chma ma’no hodisasi orqali xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari umumlashtirilgan, lo‘nda va esda qoluvchi shaklda ifodalanadi. Shuningdek, o‘z va ko‘chma ma’noning uyg‘un holda qo‘llanishi maqollarning nafaqat estetik, balki didaktik va tarbiyaviy ahamiyatini ham kuchaytiradi. Umuman olganda, maqollarda o‘z va ko‘chma ma’no hodisalarining tahlili o‘zbek tilining semantik tizimidagi boylik va rang-baranglikni, xalq tafakkurining til vositalari orqali qanday badiiy-ifodaviy shakl kasb etishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonulla Madayev O‘zbek xalq og‘zaki ijodi o‘quv qo‘llanma. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010.
2. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O‘zbek folklori darslik. –T.: “Tafakkur bo‘stoni”. 2020.